

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

“CHORVOQ” ERKIN TURISTIK ZONASINI TASHKIL ETISH TO‘G‘RISIDA

Toshkent viloyatining turistik salohiyatini yanada rivojlantirish hamda undan foydalanish samaradorligini oshirish, hududga xorijiy va mahalliy turistlarni keng jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish, zamonaviy infratuzilmani jadal rivojlantirishni ta‘minlash, ko‘rsatilayotgan turistik, mehmonxona va transport xizmatlarini kengaytirish va sifatini oshirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Toshkent viloyati hokimligi, “Energiya tejash milliy kompaniyasi” AJ, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining (keyingi o‘rinlarda — O‘zmilliybank):

Toshkent viloyatining Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasi chegarasi doirasida “Chorvoq” erkin turistik zonasini (keyingi o‘rinlarda — erkin turistik zona) tashkil etish;

erkin turistik zona hududida zamonaviy mehmonxona majmualari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va turistik ahamiyatdagi boshqa obyektlar qurish, shuningdek zamonaviy muhandislik infratuzilmasi obyektlarini tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

2. Quyidagilar erkin turistik zonaning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilansin:

erkin turistik zonada zamonaviy turizm infratuzilmasi obyektlari (mehmonxona majmualari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va turistik ahamiyatdagi boshqa obyektlar)ni, turistlarga xizmat ko‘rsatish uchun zarur sharoitlarni ta‘minlagan holda maxsus funksional va mavsumiy rekreatsion dam olish zonalarini yaratish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy va mahalliy investorlarning investitsiyalarini jalb qilish;

hududning ekomuhiti imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘ziga xos turistik yo‘nalishlarni tashkil etish;

transport vositalarining arzonligini ta‘minlash, hududda transport harakatining yangi (poyezd, elektropoyezd, avtobus), shu jumladan, muqobil energiya manbalarida harakatlanuvchi turlarini joriy etish, yo‘lovchi transporti yo‘nalishlarini kengaytirish, uning to‘xtovsiz harakatini tashkil etish, tegishli transport infratuzilmasini rivojlantirish;

turistlar xavfsizligining qo‘shimcha sharoitlarini, shu jumladan turistik infratuzilma obyektlarini videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash, ogohlantirish tizimlarini tashkil etish, mintaqa hududiga keluvchi turistlar haqida yagona ma‘lumotlar bazasini, favqulodda holatlarda tez yordam berish tizimini joriy etish yo‘li bilan yaratish;

erkin turistik zona hududida loyihalarni amalga oshirayotgan va faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari hamda investorlar (shu jumladan, xorijiy investorlar) uchun belgilangan alohida bojxona va soliq rejimlarini ta‘minlash;

energiyaning muqobil va qayta tiklanadigan manbalarini qo‘llagan holda yangi zamonaviy energiya tejovchi tizimlar va texnologiyalarni sinov tariqasida joriy qilish asosida o‘ziga xos ekologik tizimni yaratish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish.

3. Belgilansinki:

erkin turistik zona erkin iqtisodiy zona hisoblanadi;

erkin turistik zona va erkin turistik zona ishtirokchilari sifatida ro‘yxatga olingan tadbirkorlik subyektlariga erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining qoidalari, shu jumladan, erkin iqtisodiy zonalar va ular ishtirokchilari uchun nazarda tutilgan barcha imtiyoz va preferensiyalar tatbiq etiladi;

erkin turistik zonaning faoliyat ko‘rsatish muddati keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan 30 yilni tashkil qiladi.

4. Toshkent viloyatining erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini ma‘muriy kengashi (keyingi o‘rinlarda — ma‘muriy kengash) zimmasiga erkin turistik zona bo‘yicha ma‘muriyatchilik funksiyalari yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi vakili hamda Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi Turizmni rivojlantirish departamenti direktori ma‘muriy kengash tarkibiga kiritilsin.

5. Toshkent viloyati hokimligi ma‘muriy kengash, O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi hamda Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi bilan birgalikda bir oy muddatda tashkil etilayotgan erkin turistik zonaning aniq chegaralarini belgilasin.

Belgilansinki, erkin turistik zona Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasi doirasida yaxlit hudud ko‘rinishida, shuningdek, alohida hududlar ko‘rinishida belgilanishi mumkin.

6. Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda erkin turistik zonaga kiruvchi hududlar chegaralarini belgilash, shuningdek “Chorvoq” erkin turistik zonasi Direksiyasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilsin.

7. Quyidagilar:

erkin turistik zonaning bosh rejasini ishlab chiqish, shuningdek, yo‘l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha buyurtmachi etib — Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi;

energiyaning qayta tiklanadigan manbalaridan (quyosh, shamol, geotermal) foydalangan holda muhandislik infratuzilmasi obyektlarini tashkil etish, shuningdek, erkin turistik zonaning ekologiyasini saqlash uchun zamonaviy tozalash inshootlari va issiqlik bilan ta‘minlash obyektlarini qurish bo‘yicha bosh loyiha, bosh pudratchi va foydalanuvchi tashkilot etib — “Energiya tejash milliy kompaniyasi” AJ;

erkin turistik zonaning bosh rejasi va hududning batafsil rejalashtirish loyihagini ishlab chiqish bo‘yicha bosh loyiha tashkiloti etib — “ToshkentboshplanLITI” DUK belgilansin.

8. “ToshkentboshplanLITI” DUK olti oy muddatda xalqaro maslahatchilarini jalb qilgan holda erkin turistik zonaning bosh rejasi va hududning batafsil rejalashtirish loyihagini ishlab chiqsin hamda ma‘muriy kengash bilan kelishilgan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlash uchun kiritilsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi:

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Toshkent viloyati hokimligi, “Energiya tejash milliy kompaniyasi” AJ hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga Erkin turistik zona hududida yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish dasturini tasdiqlash uchun kiritilsin;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi bilan birgalikda har yili kelgusi yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturlari parametrlarini shakllantirishda erkin turistik zonaning bosh rejasi va hududning batafsil rejalashtirish loyihagini ishlab chiqish uchun haq to‘lash, erkin turistik zonaning ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan bosh rejasi asosida erkin turistik zonaning transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish uchun kapital qo‘yilmalar limitlarini hamda zarur markazlashtirilgan investitsiyalar ajratilishini nazarda tutsin;

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, ma‘muriy kengash bilan birgalikda bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga erkin turistik zonada amalga oshirish va joylashtirish uchun loyihalarni tanlash mezonlari bo‘yicha takliflar kiritilsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) erkin turistik zonada amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish uchun 100 mln. AQSh dollari miqdorida imtiyozli kredit liniyasi ochilishini ta‘minlasin.

Belgilansinki:

Jamg‘arma tomonidan ajratiladigan kredit liniyasi mablag‘larini qayta moliyalashtirish O‘zmilliybank, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB va “Asaka” ATB tomonidan amalga oshiriladi;

kredit liniyasi doirasida xorijiy valyutadagi kreditlar 2 yillik imtiyozli davr, yillik 2 foiz qo‘shilgan 6 oylik LIBOR va bankning yillik 0,5 foiz miqdoridagi marjasiga teng bo‘lgan foiz stavkasi bilan 7 yilgacha muddatga taqdim etiladi;

Jamg‘arma kredit liniyasi mablag‘lari zamonaviy import jihozlari va texnologiyalarini xarid qilish uchun investitsiya loyihasi qiymatining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan summada ajratiladi.

11. O‘zmilliybank, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB va “Asaka” ATBga:

erkin turistik zona hududida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarida 100 foizgacha bank ulushi bilan, shu jumladan banklarning tegishli investitsiya kompaniyalari orqali ishtirok etish; amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi bilan birgalikda xalqaro moliyaviy institutlar, xorijiy banklar va boshqa investorlar — yuridik va jismoniy shaxslar (shu jumladan, xorijiy), davlat va nodavlat jamg‘armalar, korxonalar va tashkilotlarning grantlari, kredit liniyalari va investitsiyalarini, beg‘araz moliyaviy yordamlarini hamda tijorat banklarining kreditlarini jalb qilish huquqi berilsin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Ichki ishlar vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda erkin turistik zona hududida intellektual transport, geoinformatsiya tizimi va boshqa shu kabilarni nazarda tutuvchi xavfsiz turizmni ta‘minlash konsepsiyasini joriy etish bo‘yicha takliflar kiritilsin.

13. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi ikki oy muddatda turistlarga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish, shu jumladan, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqsin, bunda erkin turistik zonaning tibbiyot muassasalari, xususan sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘ini muassasalari bilan ta‘minlanishiga, ularning zamonaviy jihozlar va yuqori malakali kadrlar bilan to‘ldirilishiga alohida e‘tibor qaratsin.

14. O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga Toshkent — Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasi (va ortga) yo‘nalishi bo‘yicha, zarur holda yangi qulay yo‘nalishlarni joriy etgan holda, kombinatsiyalashgan yo‘lovchi tashish tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar kiritilsin.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi PQ-2916-son qarori bilan tashkil etilgan Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini muvofiqlashtirish va takomillashtirish bo‘yicha Respublika komissiyasi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi bilan birgalikda maishiy chiqindilarni erkin turistik zona hududidan eng yaqin chiqindilarni qayta ishlash korxonalariga olib chiqib ketishni tizimli ravishda tashkil etish bo‘yicha choralar ko‘rsin.

16. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Toshkent viloyati hokimligi, O‘zmilliybank bilan birgalikda ikki oy muddatda:

Chorvoq erkin turistik zonasini yanada rivojlantirish konsepsiyasi loyihasini va uni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin hamda ularni ma‘muriy kengash va boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan kelishilgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin;

qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

Oldingi tahrirga qarang.

17. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Abduxakimov zimmasiga yuklansin.

(17-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.01.2019-y., 06/18/5611/2430-son)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2017-yil 5-dekabr,
PF-5273-son

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.12.2017-y., 06/17/5273/0363-son; 06.01.2019-y.,
06/18/5611/2430-son)*